

## JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XORIJIY TAJRIBALARI

**Maxmudov N.I.**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
magistratura tinglovchisi

**Annotatsiya:** Maqolada Jahonning bir necha rivojlangan mamlakatlari, ulardagi mavjud bo'lgan jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi, uning rivojlanish istiqbollari, uning amaldagi holati, tarkibiy qismlari, ishlash tizimi, uning samarasi hamda erishilayotgan natijalari keltirilgan va bir nechta jihatlari qiyoslama muhokama qilingan. Barcha fikrlar chuqur tahlil qilingan holda milliy tizimimizga mos keluvchi takliklar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy himoyalash, ijtimoiy-iqtisodiy holat, jahon tajribasi, Yevropa tajribasi, jahon amaliyoti.

**Аннотация:** В статье представлены несколько развитых стран мира, существующая в них система общественной безопасности, перспективы ее развития, ее нынешнее состояние, компоненты, система работы, ее эффективность и достигнутые результаты, а также сравнительно рассмотрены некоторые аспекты. Все мнения тщательно анализируются и даются рекомендации, совместимые с нашей национальной системой.

**Ключевые слова:** Общественная безопасность, общественный порядок, обеспечение общественной безопасности, социально-экономические отношения, социальная защита, социально-экономическая ситуация, мировой опыт, европейский опыт, мировая практика.

**Annotation:** The article presents several developed countries of the world, their existing public security system, its development prospects, its current status, components, work system, its effectiveness and achieved results, and several aspects are discussed comparatively. All opinions are thoroughly analyzed and recommendations are given that are compatible with our national system.

**Keywords:** Public safety, public order, ensuring public safety, socio-economic relations, social protection, socio-economic situation, world experience, European experience, world practice.

XX asrning oxirgi o'n yilliklari insoniyat taraqqiyotida ilgarilab rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Shu bilan bog'liq ravishda inson, uning salomatligi va aql-zakovati har qanday davlatning asosiy boyligi bo'lib qoldi. Hozirgi zamon jamiyatini rivojlantirishdan asosiy maqsad esa siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni yaratishdan iborat bo'lib, ular insonning aqliy salohiyatlarini yanada rivojlantirishga yordam berishi, uni rivojlantirish imkoniyatlarining keng tanlovini ta'minlashi, shaxsni har tomonlama shakllantirish sharoitlarini yaratishi zarur.

Kelinglar dastlab hozirgi zamonda ijtimoiy yo'naltirilgan davlat qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerakligiga oydinlik kiritib olamiz:

- jamiyatning barcha a'zolariga ijtimoiy himoyalash tizimiga kirishda teng huquqlarni taqdim qilish yo'li bilan ijtimoiy xatarlarni qisqartirish, zararsizlantirish va bartaraf qilish ustidan javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;

- muntazam ravishda ijtimoiy vazifalarni bajaradi, buning uchun ijtimoiy tartiblashning tegishli huquqiy asoslariga ega bo'lgan ijtimoiy himoya institutlarini yaratadi;

- muhim ijtimoiy meyorlar va standartlarni qonunan mustahkamlab qo'yadi;

- ijtimoiy vazifalarni bajarish uchun sug'urtalash va qayta taqsimlash moliyaviy mexanizmlarini yaratadi.

Shunday qilib, har bir kishiga o'zining fiziologik, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini munosib hayot kechirish uchun zaruriy hajmda qondirish imkoniyatlarini taqdim qilish shaklida inson taraqqiyoti maqsadlarining amaliyotga joriy etilishi ko'p jihatdan davlatda qabul qilingan aholini ijtimoiy himoyalash tizimiga bog'liq bo'ladi.

“Ijtimoiy himoyalash”ning zamonaviy tushunchasi Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), Umumjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (USST), Xalqaro ijtimoiy ta‘minot uyushmasi (XITU)ning ijtimoiy sug‘urtalash va ijtimoiy yordam bo‘yicha konvensiyalari va tavsiyalarida shakllangan.

Ijtimoiy himoyalash – bu keng ma‘noda – mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta‘minlaydigan va jamiyatda qaror topgan xuquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy choratadbirlar majmui; tor ma‘noda – davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta‘minlanmagani tufayli yordamga, ko‘makka muhtoj fuqarolar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rliqi. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to‘xtovsiz yaxshilanishini ta‘minlash, aholi qat-lamlarining ta‘lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta‘minlash ga yordam berishdan iborat. Ijtimoiy himoyaning asosiy yo‘nalishlari: erkin ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishni ta‘minlash; ish bilan bandlik, kasb tanlash, o‘qish va bilim olish; daromadlarning kafolatlanishi; har bir fuqaroning o‘z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo‘lishi; is-te‘molchilar himoyasi, iste‘molchilar jamiyatlari; tovarlar va xizmatlar sifati, iste‘mol kafolatini ta‘minlash; aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish; ijtimoiy ta‘minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta‘minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish.

Rivojlangan demokratik jamiyatda Ijtimoiy himoya vazifalarini bajarishni davlat o‘z zimmasiga oladi.

Ijtimoiy himoyalash mexanizmlari barcha fuqarolar uchun davlat tomonidan kafolatlangan eng kam turmush darajasini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy nizolarni yumshatish va tengsizlikni qisqartirish vositasi sifatida yaratildi. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimida ijtimoiy ta‘minotga alohida e‘tibor qaratiladi. Ijtimoiy ta‘minot tizimi birinchi marta Yevropada XIX asrning oxirida joriy etilgan va Ikkinchi jahon urushidan keyin oxirgi shaklini olgan. Olimlar tomonidan ijtimoiy ta‘minot tushunchasiga berilgan ta‘riflar juda turli-tuman. Biroq ko‘pchilik tadqiqotchilar uni alohida hayotiy vaziyatlarda (daromadning yo‘qotilishi yoki pasayishi, yoki yuqori xarajatlar, kam ta‘minlanganlik yoki kambag‘allik) fuqarolar himoyasini ta‘minlaydigan ijtimoiy himoya bloklaridan biri sifatida o‘rganadilar.

1952 yildagi “Ijtimoiy ta‘minotning eng kam meyorlari to‘g‘risida”gi 102-sonli konvensiyaga muvofiq, ijtimoiy ta‘minotga jami xarajatlar 9 yo‘nalish bo‘yicha barcha dasturlar yoki xizmatlarni o‘z ichiga oladi: qarilik pensiyasi, boquvchisini yo‘qotganlik, nogironlik, ishlab chiqarish jarohati olgan vaziyatlarda, kasallik va salomatligining holati bo‘yicha, oilaviy sharoitlari, ishsizlik, turar joy, ijtimoiy yordam ko‘rsatish dasturiga ko‘ra nafaqalar. Tarixan turli mamlakatlarda ijtimoiy ta‘minotning turli tizimlari vujudga kelgan.

Ijtimoiy himoyalashning zamonaviy tizimiga mehnat bozori institutlari ham kiradi: eng kam ish haqi instituti, ijtimoiy sheriklik instituti hamda aholi bandligiga ko‘maklashish davlat faol dasturlari.

Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlardagi milliy standartlar ta‘lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy kommunal xizmatlari ko‘rsatish, atrof-muhit va axborot makoni bilan bog‘liq. Hozirgi zamon rivojlangan iqtisodiyotida ijtimoiy himoyalash uslubiy tamoyillari keng ma‘lum va og‘ishlarsiz amal qilmoqda. Farovonlik davlatlari va liberal ijtimoiy davlatlar barcha uchun yagona bo‘lgan tamoyillar bilan emas, balki qator tamoyillarning ustuvorligi bilan farqlanadi. Shuningdek, farovonlik davlatlari uchun birdamlik tamoyili va mos ravishda, qayta taqsimlash mexanizmi, liberal davlatlar uchun esa sug‘urtalash tamoyili va ijtimoiy xatarlarni moliyalashtirishning sug‘urtalash mexanizmlari ustuvor hisoblanadi (1-jadval). Tarixiy rivojlanishning turli davrlarida tizim belgilarining birligi saqlanib qolgan sharoitda turli tamoyillar birinchi o‘ringa surilishi mumkin.

### 1-jadval.

## Hozirgi zamon rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoyalash tamoyillari

<b>Tamoyillar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tizimlarining birligi;</li> <li>jamiyat barcha a’zolari uchun huquqlar tengligi yoki ijtimoiy tizim qulayligi;</li> <li>ijtimoiy sug’urta va qayta taqsimlash mexanizmlarini uyg’unlashtirish;</li> <li>birdamlik;</li> <li>sug’urtalash;</li> <li>subsidiarlik;</li> <li>manzillilik;</li> <li>dinamizm;</li> <li>yagona normativ makon;</li> <li>ijtimoiy yordam sohalarini kengaytirish;</li> <li>variativlik (tanlash imkoniyati mavjudligi) va b.</li> </ul>	
<b>Tamoyillar</b>	<p><b>Farovonlik davlati</b> (welfare state) – Yevropa mamlakatlari</p>	<p><b>Liberal ijtimoiy davlat</b> AQSH, Avstraliya, Irlandiya va b.</p>
<b>Tamoyillar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>jamiyatning barcha a’zolari turmush darajasini tenglashtirish tamoyili;</li> <li>birdamlik ;</li> <li>qayta taqsimlash moliyaviy mexanizmi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>o’z ulushidan kelib chiqib (mehnat staji va h.k.), ijtimoiy xatardan zarar sug’urtasini joylashtirish tamoyili;</li> <li>sug’urtalash;</li> <li>sug’urtalash moliyaviy mexanizmi.</li> </ul>

O’tgan asrning oxirgi yillarida va hozirgi davrning boshlarida ko’plab mamlakatlar aholini ijtimoiy himoyalashni tashkil qilishda murakkab muammolarga duch keldilar. Shu bilan bog’liq ravishda ijtimoiy himoyalanganlikning yuqori darajasi iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va samaradorlik bilan uyg’unlashuvini ta’minlash uchun ijtimoiy himoyalash tizimini faol nazariy tadqiq etish va amalda isloh qilish olib borilmoqda. XX asrning oxirlarida rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy himoyasining amal qilishi va turmush sifati milliy standartlarining shakllanishida ustuvorlik sifatida quyidagi tamoyillarni ilgari surish yagona tendensiyasi paydo bo’ldi.

“Agar hayotga ma’lum qimmatga ega “harakatlar va yashash sharoitlari” to’plami sifatida qaralsa, turmush sifatini baholash moddiy sharoitlarning bu turlari, insonning harakatlanish imkoniyatlari va real harakatlarini baholashshaklini oladi. Hayotning tarkibiy unsurlari faoliyat turlari xilma-xilligi sifatida ko’riladi. Bu faoliyat turlari oddiy (fiziologik ehtiyojlar), ijtimoiy bo’lishi mumkin. Imkoniyatlar shaxsni turli tur-mush tarzlaridan birini tanlash erkinligini ifodalaydi”. [1]

Homiladorlik ta’tili va ma’lum yoshgacha (turli mamlakatlarda turlicha) bo’lgan bolalarni parvarishlash ta’tili davridagi ayollarga iqtisodiy faol aholi tushunchasining qo’llanilishi. Ko’pgina mamlakatlar onalik va bolalikni qo’llab-quvvatlash, oilada inson resurslarini takror ishlab chiqarishga yondashuvlarda tub o’zgarishlarni amalga oshirish zarurligini bildirmoqdalar. Ayollarning uy xo’jaliklaridagi bandligi, ularning bolalar tarbiyasi jarayoniga jalb qilinganligi ijtimoiy nafaqa shaklida emas, balki ish haqi shaklida mukofot olishi taqozo etiladi. Hatto, agar pul ekvivalentida bu summalar teng bo’lsa, ayollarning ijtimoiy maqomi, pensiya ajratmalari u band sifatida e’tirof etilgan vaziyatda istalgan band individ kabi o’rinli bo’lishi mumkin. [2]

Ijtimoiy himoya tamoyillarini amaliyotga joriy etish har bir sohada o’ziga xos shaklda namoyon bo’ladi, shu sababli uni alohida ko’rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Hozirgi O’zbekistonning rivojlanishi jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarida dinamik o’zgarishlar bilan tavsiflanadi. O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish o’rta va uzoq muddatli strategiyalarini amalga oshirish ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar jihatidan barqaror o’sishga yordam beradi, respublika iqtisodiyotini teng raqobatli imkoniyatlar asosida jahon iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashni ta’minlaydi. Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy

modernizatsiyalashning O‘zbekiston yo‘li yuqori turmush darajasini yaratishga qaratilgan. Turmush sifati standartlari boqimandalik kayfiyatlarining o‘shishiga olib kelmagan holda respublikani ijtimoiy modernizatsiyalash va inson kapitalini rivojlantirishning samarali bozor vositasi bo‘lishi kerak. Jamiyat ijtimoiy rivojlanishini modernizatsiyalash, davlatdan fuqarolarni ijtimoiy himoyalash va daromadlarni shakllantirish uslubiyatiga bugungi yondashuvlardan farqli aholini ijtimoiy himoyalash siyosati islohotlarini davom ettirishni talab qiladi. Bu mamlakatda inson kapitali sifat darajasi, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish darajasi, aholi hayot sifati ko‘rsatkichlarining Yevropa mamlakatlaridagi turmush darajasi umumqabul qilingan standartlari bilan taqqoslanuvchanligini tavsiflaydigan qator omillar bilan belgilanadi. Yevropa Ittifoqida turmush darajasi dinamikasi o‘shish tomoniga o‘zgarmoqda. Bir kishiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot (RRR standartida) Lyuksemburgda eng yuqori va Bolgariyada eng past hisoblanadi. Yevropa ittifoqi o‘zining boy va kambag‘al a‘zolari o‘rtasidagi farqni kamaytirish, Yevropa iqtisodiyotini kuchaytirish, uning raqobatbardoshligini oshirish va ko‘plab ishchi o‘rinlarini yaratish, shu orqali turmush sifatini yaxshilashga urinmoqda. Turmush sifati iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan qator omillarga bog‘liqdir. Turmush sifati standartlari mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqib, Yevropaning barcha mamlakatlarida farqlanadi. Shu bilan birgalikda ijtimoiy standartlarning kafolatlangan minimumi meyorlarini qonunan e‘tirof etish yagona tamoyili Yevropa Ittifoqi (YEI)ning barcha davlatlari uchun umumiy asos hisoblanadi. Bu barcha fuqarolar uchun moddiy ne‘matlar va ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan hayotiy ehtiyojlarni qondirishda istisnolarsiz teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlaydi. Yevroitifoq mamlakatlarida davlat minimal ijtimoiy standartlari sog‘liqni saqlash, ta‘lim, aholini ijtimoiy himoyalash, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport, uy-joy kommunal xo‘jaligi xizmatlarini ko‘rsatish, huquq-tartibot va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash, oilani, onalik va bolalikni qo‘llab-quvvatlash sohalarida o‘rnatilgan. Umumqabul qilingan uslubiyatga ko‘ra, turmush sifati minimal ijtimoiy standartlari YEI da Yevropa ijtimoiy ta‘minot kodeksi, Yevropa Ittifoqi fundamental huquqlar Xartiyasi,

Yevropa ijtimoiy ta‘minot kodeksiga Bayonnoma talablariga muvofiq o‘rnatiladi. YEI talablariga muvofiq, Xalqaro Mehnat Tashkilotining 102-sonli «Ijtimoiy ta‘minot eng kam meyorlari to‘g‘risida»gi (Jeneva, 1952 y. 4 iyun), 131-sonli «Eng kam ish haqini belgilash to‘g‘risida»gi konvensiyalari barcha mamlakatlarda ratifikatsiyalangan. Bu esa YEI barcha mamlakatlarida turmush sifati standartlarini belgilash yagona tamoyilini ta‘minlash imkonini beradi. Eng kam ish haqi darajasi bo‘yicha Yevropa ittifoqi mamlakatlarini shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh to‘qqizta mamlakatni o‘z ichiga oladi (Bolgariya, Ruminiya, Latviya, Litva, Slovakiya, Estoniya, Polsha, Vengriya va Chexiya). Eng kam ish haqi bu guruhda 2006 yil 1 yanvarida 82 dan 331 yevrogachani tashkil qildi. Ikkinchi guruhda eng kam ish haqi 437 dan 668 yevrogacha bo‘lgan beshta mamlakat mavjud (Portugaliya, Sloveniya, Malta, Ispaniya va Gretsiya). Uchinchi guruh oltita Yevropa mamlakatini o‘z ichiga olib (Fransiya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Irlandiya va Lyuksemburg), unda eng kam ish haqi 1200 yevrodan yuqorini tashkil qiladi. 2006 yil martida Yevropa kengashi «Birga ishlab, yaxshi ishlab: ijtimoiy himoya va ijtimoiy qo‘shilish siyosatini muvofiqlashtirish yangi chizmasi» hujjatida bayon qilingan ijtimoiy himoya yangi chizmasini ko‘rib chiqdi. Mazkur hujjatda, xususan, davlat va xususiy pensiya tizimlari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash orqali o‘xshash va barqaror pensiyalarni qo‘llab-quvvatlash zarurligi to‘g‘risida gapiriladi. YEI mamlakatlari pensiya tizimlari barqarorligining asosi keksa yoshdagi kishilar ishlash davomiyligini oshirish strategiyasi bo‘lib qolishi kerak, bunda ishchi o‘zining pensiyaga chiqishini keyinga qoldirishdan manfaatdor. Masalan, Germaniyada qo‘shimcha xususiy pensiya sug‘urtasi pensionerlarga ular mehnat faoliyatining avvalgi yillaridagi turmush darajasini keksalikda ham qo‘llab-quvvatlash imkonini beradigan moliyaviy ta‘minotga ega bo‘la olishlari uchun kiritildi. Sloveniyada o‘rtacha pensiya o‘rtacha ish haqining 69% ini tashkil qiladi, bu esa to‘la qo‘llanuvchandir. Polshada o‘rtacha pensiya taxminan 200 yevroni yoki o‘rtacha ish haqining 22% ini tashkil qiladi. Vengriyada o‘rtacha pensiya o‘rtacha ish haqining kamida 40% ini tashkil qiladi va 116,71 yevroga tengdir. Bolgariyada eng kam pensiya



taxminan 25 yevroni, eng ko‘pi esa 50 yevroni tashkil qiladi. Yevropa ijtimoiy ta‘minot kodeksi pensiyani o‘rtacha ish haqining 50% idan yuqori ko‘tarishni tavsiya etadi. Germaniyada o‘rtacha pensiya o‘rtacha ish haqining 62% ini tashkil qiladi. Pensiya xarajatlarining YAIMdagi ulushi universal indikator hisoblanadi. Estoniyada pensiya to‘loviga xarajatlar ikki martadan ko‘proqdir va YAIM ning 5,9% ini tashkil qiladi. YEI mamlakatlarida tasdiqlangan tibbiy xizmatlar sifati standartlari profilaktik va davolash tavsifidagi turli tibbiy yordamlarni mujassamlashtiradi. Sog‘liqni saqlash sohasidagi ijtimoiy standartlar statsionar, ambulator-poliklinik va tez tibbiy yordam, sil kasallari va bolalarga sanatoriy yordami ko‘rsatish bo‘yicha bepul umumqulay xizmatlar hamda sanitar-profilaktik tavsifdagi xizmatlar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Sog‘liqni saqlash sohasidagi ijtimoiy standartlar yiliga bir kishiga hisoblangan sog‘liqni saqlashning eng kam byudjet ta‘minoti meyor, bepul va umumqulay tibbiy xizmatlar har xil turlari va h.k.larni moliyalashtirish meyorlarini aniqlash uchun qo‘llaniladi. YEIning 8 ta mamlakatida sog‘liqni saqlash sohasiga xarajatlar Sloveniyadagi YAIM ning 8,1%idan Estoniyadagi YAIM ning 5,4%igacha oraliqda tebranib turadi. Uchta Boltiqbo‘yi mamlakati (Estoniya, Latviya i Litva) sog‘liqni saqlashga o‘rtacha YAIMning kamida 6% ini sarflaydi. Visegrad-4 guruhi mamlakatlari bu maqsadlarga (Chexiya, Vengriya, Polsha, Slovakiya) YAIM ning 6,2%idan 7,5%igacha mablag‘ni sarflaydilar. Sloveniya sog‘liqni saqlashga YAIMning 8%idan birmuncha ko‘proq mablag‘ sarflaydi. YEIning 8 ta mamlakatida sog‘liqni saqlashga xarajatlar YAIM ning o‘rtacha 6,6%ini, YEIning 15 ta mamlakatida YAIM ning 8,1%ini tashkil qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki mamlakatimizda aholining tinch va osoyishta hayotini ta‘minlash, jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirish bilan bir qatorda jamoat xavfsizligi sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish hamda ushbu yo‘nalishdagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, bugungi globallashuv sharoitida jamoat xavfsizligini ta‘minlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni izchil davom ettirish talab etiladi.

Shu maqsadda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- harbiy xizmatchi va xodimlarning ijtimoiy himoyasi bilan bog‘liq normativ-hujjatlar va amaliyotda uchrayotgan muammolar muntazam tahlil etib borish hamda harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish;

- Jamoat xavfsizligini ta‘minlash, guruhiy qonunbuzarliklar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish hamda aholining turmush darajasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha 14 ta (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar) “Hudud metodikasi”ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish

- Jamoat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha vakolatli davlat organlari xodimlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasiga doir imtiyozlardan foydalanishida inson omilini cheklaydigan avtomatlashtirilgan tizimni joriy qilish;

- Koreya Respublikasi tajribasini (Koreya milliy politsiya universiteti “Ye-saram” davlat elektron platformasi) o‘rgangan holda, xodimlar va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish kafolatlaridan foydalanish bo‘yicha “E-jamoat xavfsizligi” axborot tizimining “Ijtimoiy-huquqiy himoya” modulini yaratish;

Bunda: ijtimoiy-huquqiy himoya qilish kafolatlaridan foydalanish borasidagi barcha xizmatlarni “yagona darcha” tamoyili asosida “E-jamoat xavfsizligi” axborot tizimining “Ijtimoiy-huquqiy himoya” moduli orqali amalga oshirish nazarda tutiladi.

- Sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarning asl omillarini “ilmiy diagnoz” asosida aniqlash va “ilmiy diagnoz xulosasi” bilan “E-jamoat xavfsizligi” axborot tizimi orqali rasmiylashtirish tartibini joriy qilish;

Bunda: jinoyatlarning omillarini “ilmiy diagnoz” asosida aniqlash metodikasini ishlab chiqish;

- jamoat xavfsizligining ta‘minlanganligi holatini tizimli ravishda monitoring qilish va baholab borish uchun Jamoat xavfsizligi bo‘yicha respublika ekspert kengashini tuzish;



Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muhim davlat dasturlarida sog'liqni saqlash va ta'lim sohasiga qo'yilmalar mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq va haqiqatda davlatning kelajagiga investitsiya hisoblanadi. Mamlakatning istiqboldagi taraqqiyotifugarolarning tashabbuskorligi, ularning ijodiy, ta'lim, madaniy, intellektual va ilmiy salohiyati bi-lan belgilanib, uning to'planishi fuqarolar turmushini sifatli yaxshilash vositasida yuz beradi.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Павлюченко В.Г. Социальное страхование. -М.: «Дашков и К», 2007. -С. 12-13.
2. Якимчук С.В. Социальная защита населения и ее совершенствование в современных условиях. Монография. -Белгород: ИП «Остащенко А.А», 2008. - С. 70.
3. Роик В.Д. Основы социального страхования. - М. «Анkil», 2005. -С. 13. 3
4. Country Background Papers; ОЭСР.